- Superkontrakt (tabaqalashtirilgan to'lov kontrakti)ga ta'lim kreditlari ajratilmaydi.

- Kredit talabaning nomiga rasmiylashtiriladi.

- Birgalikda qarz oluvchi sifatida talabaning ota-onasi, yaqin qarindoshlari shuningdek, qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan uchinchi shaxslar ishtirok etishi mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 18 avgustdagi "Oliy, o'rta va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 457-sonli qarori doirasida ta'lim kreditlari O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talaba xotin-qizlarga yillik 14 foiz stavkada ajratiladi va **KREDIT FOIZ STAVKALARINI QOPLASH MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI TA'LIM KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISH JAMG'ARMASI MABLAG'LARI HISOBIDAN BANKNING TALABNOMASIGA MUVOFIQ XAR UCH OYDA AMALGA OSHIRILADI.**


@asakabankofficial
asakabankofficial
asakabank_official
www.asakabank.uz

Mutaxassis bilan bog'lanish uchun
**+998 (94) 518-59-09**
Ibragimov Ulug'bek
Aloqa markazi: **1152**


Ma'lumotlar 31.08.2022 holatiga ko'ra aktual

Asakabank

## TA'LIM KREDITI



# IMTIYOZLI TA'LIM KREDITI

**TA'LIM KREDITI** - Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki qabul qilingan, shuningdek o'qishini ko'chirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun ajratiladi.

## TA'LIM KREDITI SHARTLARI

### MUDDATI

Ta'lim tashkilotlarida o'qish davri hisobga olingan holda, talaba o'qishni bitirgandan so'ng yettinchi oydan boshlab yetti yil muddatga;

### MIQDORI

Talaba va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi rasmiylashtirilgan shartnomada ko'rsatilgan bir yil uchun to'lov miqdorigacha;

### FOIZ STAVKASI

Yillik 14 foiz;

### ASOSIY QARZNI TO'LASH BO'YICHA IMTIYOZLI DAVR

Talabaning o'qish davri va bu davr tugaganidan so'ng qo'shimcha 6 oy

### TA'MINOTI

- Sug'urta polisi
- Uchinchi shaxs kafilligi

## ZARUR HUJJATLAR

- qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasporti/ID kartasi);

- talaba va ta'lim muassasasi o'rtasidagi rasmiylashtirilgan to'lov shartnoma;

- daromadlari soliqqa tortilmaydigan shuningdek, daromadlaridan soliq ushlanadigan, ammo bu haqidagi ma'lumotlarni soliq bazasidan olish imkoni bo'lmagan ayrim soha vakillari va pensionerlar uchun eng kamida so'nggi 6 oy uchun daromadlari to'g'risidagi ma'lumotnoma

- kredit qaytarilishining ta'minoti bo'yicha hujjat (kafillik asosida bo'lganda kafil shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati, sug'urta polisi asosida bo'lganda polis);

- "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan oila to'g'risida ma'lumot (mavjud bo'lganda). Ushbu reestrga kirgan oilalar farzandlarining o'qishi uchun rasmiylashtiriladigan ta'lim kreditlari bo'yicha garov va kafillik talab etilmaydi.